

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Зумрад Бойхўразовна Раҳмонкулова XXI АСР ТУРКИЯ ТАРИХШУНОСЛИГИДА ЖАДИДЧИЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	5
2. Gulnara Rashidovna Joldasbaeva QORAQALPOQLARNING AN'ANAVIY SUT MAHSULOTLARI VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI.....	11
3. Nigora Azadovna Egamberdiyeva XORAZMNING QADIMIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI (KULOLCHILIK TARIXI MISOLIDA).....	17
4. С.И.Габриэльян СРЕДНЕВОСТОЧНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ РУССКО-ГЕРМАНСКОГО СОПЕРНИЧЕСТВА НАКАНУНЕ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	23
5. Risolat Davron qizi Murodova ILMIY MEROSNI SAQLASHDA ILMIY MUZEYLARNING O'RNI: TAJRIBA VA TAHLIL...	35
6. Shukrullo Nasriddinov, Dilshod To'xtasinov O'RTA OSIYO DINIY-MONUMENTAL ME'MORCHILIGINING AYRIM XUSUSIYATLARI HAQIDA.....	42
7. Sherbek Axmedovich Omanov, Shukrullo Nazrullayevich Nasriddinov AXSIKENT YODGORLIGI ASOSIDA O'RTA ASRLAR UY - JOY XO'JALIGI MODDIY MADANIYATINING O'RGANILISHI.....	48
8. Матлуба Бойхурозовна Раҳманкулова XVI–XVII АСРЛАР МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУҚОВАЛАРИДА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ҲИРОТ МУҚОВАСОЗЛИК УСЛУБИ АНЪАНАЛАРИ.....	54
9. Abdulla Nuritdinovich Rasulov, Nurillo Abdulboqiyevich Rejabboyev SAMARQAND VILOYATI OCHARCHILIK OQIBATLARINI TUGATISH KOMISSIYASI FAOLIYATI.....	63
10. Рустам Султонмуродович Солиев XX ASRDA TURKISTONDAGI SIYOSIY PARTIYALAR VA IJTIMOIY-SIYOSIY HARAKATLAR.....	71
11. Xayrullo Lutfillojon o'g'li Xolmirzayev QO'QON XONLIGIDA 1853-YIDAN KEYINGI SIYOSIY HARAKATLAR VA MALLAXONNING HOKIMIYATGA KELISHI.....	76
12. Mirzabek Karimjon o'g'li Xolboyev FARG'ONA VODIYSI OBLASTLARIDAGI ARXIV MUASSASALARI FAOLIYATI TARIXI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	82



Shukrullo Nasriddinov,

Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi,

Dilshod To'xtasinov,

Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'RTA OSIYO DINIY-MONUMENTAL ME'MORCHILIGINING AYRIM XUSUSIYATLARI HAQIDA

For citation: Shukrullo Nasriddinov, Dilshod Tukhtasinov. ON SOME FEATURES OF RELIGIOUS AND MONUMENTAL ARCHITECTURE IN CENTRAL ASIA. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 7.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807413>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'rta Osiyoning diniy-monumental me'morchiligi Namangan viloyatida joylashgan Qirghujra va Uchtepa-Buloqmozor arxeologiya yodgorliklari ma'lumotlariga asoslangan holda ko'rsatib berilgan. Er. avv. V–IV asrlar bilan davrlashtirilgan Qirghujra yodgorligida olib borilgan qazish ishlari jarayonida shahar shahristoni markazida baland tepalik usti tekislanib, ustiga paxsadan baland platforma qilinganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, monumentlar inshootlar, me'morchilik, arxeologiya yodgorliklari, Qirghujra, Uchtepa-Buloqmozor, qazishmalar, olov, xristianlik, buddizm.

Шукрулло Насриддинов,

старший преподаватель Наманганского

государственного университета,

Дилшод Тухтасинов,

старший преподаватель Наманганского

государственного университета,

доктор философии по историческим наукам (PhD)

О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ РЕЛИГИОЗНО-МОНУМЕНТАЛЬНОЙ АРХИТЕКТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе данных археологических памятников Кирхуджры и Учтепа-Булокмозора, расположенных в Наманганском регионе, представлена религиозная и монументальная архитектура Центральной Азии. В ходе раскопок памятника Кирхуджра, датированного V–IV веками до н.э., было обнаружено, что в центре города был выровнен высокий холм, на котором была построена платформа, более высокая, чем пакша.

Ключевые слова: Центральная Азия, памятники, сооружения, архитектура, археологические памятники, Кирхуджра, Учтепа-Булокмазар, раскопки, огонь, христианство, буддизм.

Shukrullo Nasriddinov,
Senior Lecturer Namangan State University,
Dilshod Tukhtasinov,
Senior Lecturer Namangan State University,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

ON SOME FEATURES OF RELIGIOUS AND MONUMENTAL ARCHITECTURE IN CENTRAL ASIA

ABSTRACT

This article presents the religious and monumental architecture of Central Asia, based on archaeological data from the Kirkhudzhra and Uchtepa-Bulokmozor sites in the Namangan region. Excavations at the Kirkhudzhra site, dating from the 5th to 4th centuries BC, revealed a high mound leveled in the center of the city, on which a platform higher than the paksha was built.

Index Terms: Central Asia, monuments, structures, architecture, archaeological sites, Kirkhudzhra, Uchtepa-Bulokmazor, excavations, fire, Christianity, Buddhism.

Dolzarbligi:

O'rta Osiyo diniy monumental inshootlari paydo bo'lishi va shakllanishi ko'plab tadqiqotchilar e'tibor markazida bo'lib kelgan. 1940-yillaridan boshlab bir qancha diniy me'morchilik namunalarining topilishi bu boradagi bahs-munoazaralarni kuchaytirgan. O'rta Osiyoda qadimdan diniy erkinlik bo'lganligini, shahar va qishloqlar aholisining turli dinlarga e'tiqod qilib kelishganligi o'z isbotini topsada, ammo tadqiqotchilar arxeologik qazuv ishlari jarayonida aniqlangan diniy monumental inshootlarni qaysi dinga taalluqli ekanligini aniqlashda ko'pincha ikkilanib qolishganlar. Faqatgina buddizm, nestorianlik e'tiqodiga mansub diniy inshootlar bundan mustasno bo'lib, ularning qurilishidagi o'ziga xoslik, anjom, bezaklari bilan shubhaga hojat qoldirmaydi. Bu borada O'rta Osiyoda nisbatan ta'siri kuchli bo'lgan mahalliy diniy oqimlar borasida turli qarashlar mavjud. O'rta Osiyoning hududida bir qancha otashparastlikka oid diniy monumental inshootlar o'rganilgan bo'lsada, ular orqali Zardushtiylik e'tiqodi ibodatxonalari rivojlanishi kuzatilmasdan qolib kelgan. Bunda asosiy sabab manbalar va arxeologik ma'lumotlarning o'zaro uyg'unlikda olib borilmaganligidir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi:

Zardushtiylik e'tiqodiga oid ko'plab izlanishlarda, mazkur din vakillarining diniy me'moriy inshootlarining tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, er.avv. V asrda yashagan Gerodot bu haqda yozib o'tib, "...ular ibodatxona ham, haykallar xam, otashdonlar ham qurishmaydi" deb aytib o'tadi [1]. Keyingi davrda etnografik ma'lumotlarni ham jalb qilgan holda izlanishlar olib borgan M. Boysning yozishicha zardushtiylik dini ilk paydo bo'lish jarayonida diniy amallar ochiq joyda baland qoyalar ustida yoki maxsus joylarda amalga oshirilgan [2]. Demakki, dastlabki davrda diniy amallar bajarish uchun yopiq maxsus inshootlar qurilmagan. Baland tepaliklardagi muqaddas olov uchun qilingan maxsus joy keyingi davrda ibodatxonalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Ahamoniylar davriga kelib esa haykallar qurish, xudolarni tasvirlash urf bo'ladi. Manbalarda keltirilishicha, Ahamoniylar sulolasi hukmdori Kir tomonidan Zeleda barpo etilgan ibodatxona devor bilan o'rab olingan usti ochiq sun'iy baland qilingan joy ko'rinishida bo'lgan [2]. Faqatgina arshakiylar davriga kelibgina muqaddas otashdonlarda olov yonib turuvchi ibodatxonalar qurila boshlangan.

Tadqiqot natijalari:

Eramizning I asrlarida yashagan Strabon bo'lsa, zardushtiylik ibodatxonalari haqida ibodat jarayonlari haqida ma'lumot keltiradi [3]. Bu mazkur davrga kelib, ibodatxonalar qurish urf

bo'lganligi, ularda otashdonda muqaddas olov yonib turganligini ko'rsatadi. M. Boys Ahamoniylar va keyingi davrda ibodatxonalarda Otash ham ikki xil bo'lganligini qayd etadi [2]. "Otashi Aduran" – "Olovlar Olovi" deb nomlangan otash nisbatan kichikroq bo'lib, u turli ijtimoiy toiflarning o'choqlaridagi olovlaridan yondirilgan. "G'alaba Olovi" – "Otashi-Varaxron" yoki "Otashi Baxrom" deb nom olgan otash yirik ibodatxonalarda yonib turib, uni ikkinchi darajali ibodatxonalar olovlarini maxsus amallarda tozalash orqali yoqilgan.

Asosiy qism:

Arxeologik materiallarga to'xtaladigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlanganidek, Markaziy Osiyo hududida bugunga qadar bir qancha ibodatxonalar qazib o'rganilgan. Jumladan, Panjikent, Yerqo'rg'on, Poykend, Jartepa, Chilonzor Oqtepasi, Qizlartepani kabilarni ko'rsatish mumkin, biroq ularning aynan qaysi dinga tegishli ekanligi borasida aniq fikrlar yo'q. Jumladan, Panjikent ibodatxonalari o'rgangan G. V. Shkoda ibodatxonani muqaddas olovga e'tiqod bilan bog'lash bilan birga devorlardagi betakror tasvirlarga ko'ra moniylik dini bilan uyg'unlashgan mahalliy din bo'lishi ham mumkinligini qayd etgan [4].

Jartepa ibodatxonasini o'rgangan A. E. Berdimurodov va M. Samibayevlar ham mahobatli inshootni aynan qaysi din vakillari yoki qaysi xudoga bag'ishlab qurilganligi haqida yakuniy fikrlarni keltirmaganlar [5]. Mualliflar dastlabki tadqiqotlarida olov ibodatxonalari bilan bog'lashga harakat qilishgan bo'lsa, A. E. Berdimurodov keyingi davrdagi tadqiqotlarida ibodatxonaning Darg'om kanali boshlanishida joylashganidan kelib chiqib, Taxti-Sangin ibodatxonasi kabi suv xudosiga bag'ishlangan bo'lishi mumkin deydi [5]. Jartepa ibodatxonasi o'zining tuzilishiga ko'ra Panjikent ibodatxonasidan farq qilib, asosida to'rt burjli inshoot turadi. Keyingi qurilish davrlarida asosiy binoga qo'shimcha xonalar qurilib borgan. Bunday tartibga ko'ra, mualliflar I–III qurilish davri binosini ibodatxona bo'lganligiga ham shubha bilan qaralgan [5]. Biroq, agarda, otashparastlik dini vakillarining muqaddas otashgohdan chiqqan kulni ham iflos qilmaslik uchun maxsus joyda saqlashini e'tiborga olsak, turar-joyi ibodatxonaga aylantirilishi haqiqatdan yiroqligi oydinlashadi.

Bu borada Poykend ibodatxonalari o'rganilishi yanada bahsli bo'lib, bugungi kungacha ishlar umumiyashtirilib yakuniy xulosalar qilinmagan [6]. Shu sababli ham xulosalarni hisobotlardan olingan natijalar yordamida aytish mumkin xolos.

O'rta Osiyo diniy me'moriy majmualarini o'rganishga katta hissa qo'shgan yana bir mutaxassis R. H. Sulaymonov Yerqo'rg'on ibodatxonasi misolida butun O'rta Osiyo diniy monumental inshootlarini tahlil qilishga muvaffaq bo'lgan [7]. Shu asosda ularni bir necha guruhlariga ajratishga muvaffaq bo'ladi. Biroq, R. H. Sulaymonov ushbu tiplarga ajratish jarayonida yirik shahar ibodatxonalari va shaharlar tashqarisidagi diniy inshootlarni alohida guruh qilishni e'tibordan chetda qoldiradi. Bunday jihat ularning asosiy xususiyatlaridan biridir, zero shahar tashqarisidagi ibodatxonalarda mudofaa imkoniyatlari birinchi o'rinda turgani bois, to'rt burjli bino asosiy o'rinda turib qolgan binolar uning atrofida shakllanadi. Bunday holatni Jartepa, Chilonzor Oqtepasi, Xontepa kabi diniy-me'moriy inshootlar tuzilishida ham ko'rish mumkin [8] (1-rasm.).

Toshkent vohasida o'rganilgan Chilonzor Oqtepasi o'rganilishida ham xuddi shu fikr ustuvor bo'lib, tadqiqotchi dastlabki izlanishlarida ushbu inshootni din bilan bog'liqligini ham ishonch bilan yozmasdan "ibodatxona" so'zini qo'shtirnoq ichida keltiradi [9]. Faqatgina keyingi tadqiqotlarida ushbu mahobatli inshoot yashash uchun mos kelmasligiga va topilmalariga asoslanib diniy me'moriy inshoot deb yakun fikrni aytadi [10]. Shuningdek, ushbu diniy me'moriy inshootni ajdodlar ruhiga e'tiqod qilish bilan bog'laydi. Farg'ona vodiysida Qizlartepa ibodatxonasi bu borada istisno bo'lib, qazish ishlari davomidayoq monumental inshoot din bilan bog'liqligiga ishonch hosil qilingan [11].

Keyingi davrda olib borilgan tadqiqotlar O'rta Osiyoda Zardushtiylik ibodatxonalarining shakllanishiga oid muhim ma'lumotlar berdi. Jumladan, Qirqhujra yodgorligida aniqlangan diniy-monumental kompleks bu borada dastlabki bosqich bo'lishi mumkin. Namangan viloyati Pop shaharchasi yaqinida, Sirdaryo bo'yida joylashgan Qirqhujra yodgorligi mutaxassislar tomonidan er.avv. VI–IV asrlar bilan davrlashtirilgan [12].

2013-yilda boshlangan arxeologik qazishma ishlari davomida mazkur yodgorlikda Farg'ona vodiysidagi eng qadimiy shahar markazlaridan biri ochilib, uning o'ziga xos mudofaa inshootlari, diniy-monumental inshootlari o'rganildi. Shahar uch qismdan iborat bo'lib, biz e'tibor qaratgan diniy monumental inshoot shaharning 2-shahriston hududida joylashgan. 2-shahriston hududining katta qismi bahor faslida Olmossoyning toshqinlari bois yuvilib ketgan bo'lsada, markaziy qismi yaxshi saqlangan [13]. Mazkur markaziy qismda baland tepalik joylashib, arxeologik qazish ishlari davomida bu yerda monumental inshoot qoldiqlari aniqlangan. Inshoot ochiq holatda bo'lib, yonlari paxsadan, pog'ona-pog'ona shaklida mustahkamlangan. Bu o'z navbatida zikkurat ko'rinishidagi diniy-monumental inshoot degan xulosaga kelishga imkon beradi [14]. Inshootning yuza qismi qalin paxsa quyish orqali tekislangan. Ibadatxonaga chiqish joyi sharqiy tomonda joylashgan. Paxsa yuza ustida kengligi, 44x25 sm (2) va 54x26 sm (2) o'lchamdagi to'rtburchaksimon, ichki va yon qismlari loy bilan suvalgan 4 ta otashgohlar qurilgan. Otashgohlarni yonida maydo shag'al toshlarda maxsus joy yasalgan. Otashgohlar bir necha yillar davomida foydalanilgan bo'lib, ishdan chiqqanlari loy bilan yopilib, yangilari yasalgan. Bu kabi otashgohlardan 4 ta topilib, barchasining ichki qismi kullardan tozalangan. Otashgohlar er.avv I asrlar bilan davrlashtirilgan.

Otashgohlardan g'arbda 2,40x2,30 o'lchamdagi, chuqarligi 1,30 m ga yetuvchi maxsus o'ra joylashgan bo'lib, ichki qismi toza kul va turli chiqindilar bilan to'ldirilgan. Kul o'raning yuqori qismida sopol siniqlari, hayvon suyaklari va qandaydir amallarda foydalanilgan bug'u shoxlari ham yig'ib olindi. Sopollarning asosiy qismi qo'lda tayyorlangan bo'lib, ichki qismida mato izlari ham uchraydi. Sopollar jamlanmasining tahlili ularni er.avv. II-I asrlar bilan davrlashtirish imkonini bergan [15]. Yuqoridagi bug'u shoxi uzunligi 25 sm bo'lib, dimetri 5 sm yuqori va pastgi qismlari o'tkir tig'li qurol yordamida kesib tekislangan. Arxeologik qazish ishlarining dastlabki davridayoq mazkur inshoot qandaydir diniy amallar bilan bog'liq ekanligi haqidagi xulosalarga kelingan.

Bu kabi ochiq baland joyga qurilgan diniy inshootlar O'rta Osiyo hududida bir necha yodgorliklarda o'rganilgan. Jumladan, Shimoliy Baqtriyada Pshaktepa, Pachmaktepa, Xorazm vohasidagi Ko'zaliqir [15] yodgorliklarida. Yerqo'rg'onda ham ochiq joyda baland tagkursi ustida muqaddas olov yonib turgan inshoot mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor [16]. Mazkur masalaga yanada oydinlik kiritish maqsadida Qirqhujra yodgorligida ochilgan monumental inshootning materiallari qayta ishlendi, shuningdek, yuqoridagi manbalar va M. Boys tadqiqotlari ma'lumotlari bilan taqqoslab ko'rildi. Natijada, mazkur o'ziga xos inshoot zardushtiylik e'tiqodiga oid ibodat o'tkaziluvchi joy bo'lishi mumkinligi aniqlashdi. Inshootning yodgorlik markazida joylashib, unga chiqish quyosh chiqish tomondaligi, paxsa tagkursi yuzasida otashgohlarning mavjudligi, shuningdek, kul saqlash uchun maxsus o'ra qilinganligi mazkur fikrimizni asoslashi mumkin. Ushbu xususiyatlar M. Boys ta'kidlaganidek, zardushtiylarning ochiq osmon ostidagi baland joyga qilingan dastlabki diniy amallar bajariluvchi joyga mos keladi [17].

Qirqhujra diniy inshootida qayd etilgan diniy inshootning baland tagkursi ustida joylashuvi, unga chiqishning sharqiy tomondanligi, kul saqlash o'rasi kabi qurilish qismlari keyingi davrda rivojlanib o'zgarib borsada, o'zining asosiy vazifasini yo'qotmagan. Mazkur an'nlarning o'zgarmasdan qo'llanib kelinishini O'rta Osiyo hududida ochilgan shahar va shahar tashqarisidagi bir qancha ibodatxonalarda ko'ramiz. Jumladan, shaharda joylashgan Panjikent, Yerqo'rg'on, Poykend, Jartepa, Robinjon ibodatxonalari ham baland tagkursi ustiga barpo etilgan. Nisbatan qadimyroq bo'lgan Yerqo'rg'on ibodatxonasining markaziy qismi xom g'ishtlardan qilingan tagkursi ustida bo'lsa, Xontepa, Poykend, Panjikent (birinchi ibodatxona) ibodatxonalari tagkursilari paxsa va paxsa bloklardan barpo etilgan.

Panjikent ikkinchi ibodatxonasi tagkursisi o'ziga xos bo'lib, dastlab xom g'ishtlardan devor terilib, so'ngra oraliq shag'al aralashtirilgan tuproq bilan to'ldirilgan. "Otashi Aduran" va "Otashi Varaxran" alohida ajralgan Panjikent ibodatxonalari yirik shaharlardagi ibodatxonalarning mukammal ko'rinishi deyish mumkin. Yirik shaharlardan tashqarida joylashgan Jartepa, Qizlartepa, Chilonzor Oqtepasi, Xontepa ibodatxonalari ham bunday an'analar namoyon bo'ladi. Ya'ni, ularning barchasi paxsdan qurilgan tagkursilar ustida joylashgan, biroq ularning barchasida kul saqlash uchun mo'ljallangan maxsus o'ralar bugungacha aniqlanmagan yoki mavjud bo'lmagan.

Faqatgina Yerqo'rg'on ibodatxonasining g'arbida maxsus joyga kul tashlanib yuzasi suvab kelingan [18].

Uchtepa-Buloqmozor majmuasida dastlabki tadqiqot ishlari 1963-yilda A. Asqarov tomonidan olib borilgan. Yodgorlik to'g'risidagi keyingi ma'lumotlarni A. Asqarovga tayangan holda M. Isomiddinov o'z hisobotlarida qayd etgan (19). Hisobotda yodgorlik Uchtepa-2, O'rtatepa yoki Nuralitepa nomlari bilan ham nomlanishi, o'sha vaqtda tepalik deyarli yumaloq shaklda bo'lib, shimoldan janubga 40 m, sharqdan g'arbga 30 m, balandligi 5 m bo'lganligi to'g'risida ma'lumot berilgan (20).

2019-yildan yodgorlikda tadqiqot olib borish, ularni davriy sanalarini, strukturasi va vazifasini aniqlashtirish maqsadi A. Asqarov boshchiligidagi keng ko'lamli arxeologik qazuv ishlari boshlandi. Arxeologik qazishmalar natijasiga ko'ra, yodgorlik to'rt pog'ona (terassa)li inshoot bo'lganligi aniqlandi. Qazishma maydonidan 30 ta xona o'rni ochilib, ularning ko'pchiligini tarkibida altar-o'choqlar, tosh altarlari, 7 ta skelet qoldiqlari (dastlabki xulosalarimizga ko'ra, qabrlardagi jasadlar 1 tasi erkak kishiga qolganlari esa, ayol kishiga tegishli bo'lgan) va 2 ta hayvon suyaklari aniqlandi. Kuzatuvlarga ko'ra, inshootga kirish shimol tomondan bo'lib, u ibodatxonaga kirish eshigi nuqtasidan yuqoriga kengayib borgan pandus-koridor sifatida obyektning markaziy zali tomon yo'naltirilgan. Uning uzunligi 7,5 metr va eni o'rtacha 70 sm ni tashkil qiladi. O'z davrida ushbu pandus-koridor hozirgi saqlangan holatidan ham uzun bo'lgan.

Aynan shu joyda pandus-koridordan sharqqa tomon zich qilib mayda tosh terilgan yo'lakcha boshlanadi. Yana shu nuqtada tosh terilgan yo'lakcha shimolga va janubga tomon ajraladi. Uning shimoliy tarmog'i orqali obyektning shimoliy xonalariga kirilgan. Janubiy tarmog'i esa obyekt markaziy zalining g'arbiy devori osti bo'ylab janub tomon ketgan. Janub tomonga yo'naltirilgan tosh terilgan yo'lakchani uzunligi 9,30 metr, kengligi 70 sm. Tosh yo'lakcha adog'ida 1-raqamli markaziy zalga eshik ochilgan.

Markaziy zal to'g'ri to'rtburchak shaklida, maydoni uzunasiga (shimoldan janubga) o'rtacha 12,15 metr, kengligi (g'arbdan sharqqa) 5,65 metrni tashkil qiladi, ya'ni markaziy zal 12,15x5,65 m o'lchamda. Markaziy zal devorlarining qalinligi (shimoliy va sharqiy) 80 sm, (janubiy va g'arbiy) 50 sm. Markaziy zal maydonining markazida bosh altar-o'choq joylashgan. Markaziy zalga olib kiruvchi eshik qarama-qarshisiga to'g'rilab, uning sharqiy devoridan ibodatxona sharqiy sektoriga o'tuvchi eshik ochilgan. Ikki eshik oralig'iga markaziy zalning birinchi bosqich davri bosh altar-o'chog'i joylashtirilgan. Afsuski, arablar (Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi qo'shinlar – *tadqiqotchilari*) bosqini davrida bu bosh altar-o'choq-otashkada buzilib ketgan, uning o'rni va tevarak atrofida jangda xalok bo'lgan aholi vakillari, tahminimizga ko'ra ayollar jasdlari o'z holicha dafn etilgan, bosh altar-o'choqning faqatgina kulxonasi (№6) saqlanib qolgan xolos. Bunday xulosaga kelish uchun butun yodgorlik hududi bo'ylab arablar bosqini vaqtidan keyingi davrlarga oid topilmalar aniqlanmadi.

Xulosa:

Bugungi kunda O'rta Osiyo hududida arxeologik qazuv ishlari davomida o'rganilgan ibodatxonalar qurilish tartiblari, manbalarda tilgan olingan zardushtiylik diniy monumental me'morchiligi an'analarini o'zida mujassam etgan. Bunday an'analar doimiy rivojlanib o'zgarib, mukammallashib borgan. Xususan, Qirghujra yodgorligi ibodatxonasi hali ochiq joyda bo'lsa, Yerqo'rg'on, Poykend, Rabinjon, Panjikent va Uchtepa ibodatxonalari ulkan, hashamdor zallari bo'lgan ibodatxonalar bo'lgan. Poykend ibodatxonasida ikki otash zallari aloxida kompleks sifatida ajralmagan bo'lsa, Panjikentda "Otashi Aduran" va "Otashi Varaxran" alohida kompleks bo'lib ajralgan. "Kul o'ralari" ham dastlabki davrda oddiy chuqur sifatida (Qirghujra, Yerqo'rg'on) bo'lsa, Xontepada chetlari xom g'ishtlardan terilgan ancha takomillashgan ko'rinishda bo'lgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Геродот. История в девяти книгах / Перевод и примечания Г. А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – С. 54.
2. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. – М.: Наука, 1987. – С. 80.

3. Страбон. География / Перевод и примечания Г. А. Строгановского. – Л.: Наука, 1964. – С. 680–681.
4. Шкода В. Г. Пенджикентские храмы и проблемы религии Согда (V–VIII века). – Санкт-Петербург,
5. Бердимуратов А. Э., Самибаев М. К. Результаты раскопок храма на Джартепа II // ИМКУ. Вып. 26. – Самарканд, 1984. – С. 85–89.
6. Бердимуратов А. Э., Индиаминова Ш. А. Буюк ипак йўли. – Тошкент, 2017. – Б. 100–101.
7. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент, 2000. – С. 255–263.
8. Yuqoridagi asar... – С. 258.
9. Филянович М. И. Раннесредневековые памятники на территории Ташкента. Древний Ташкент / Отв. ред. И. Ахоров. – Ташкент, 1973. – С. 117–122.
10. Филянович М. И. Ташкент – зарождение и развитие города и городской культуры. – Ташкент, 1983. – С. 120.
11. Мақсудов Ф. А. Храм огнепоклонников I–III вв.н.э. в Южной Ферганы // ИМКУ. Вып. 31. – Самарканд, 2000. – С. 115–118.
12. Анарбаев А. А., Баратов С. Р., Саидов М. М., Кубаев С. Ш., Насриддинов Ш. Н. Археологические исследования городища Чильхуджра в 2013 году // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. – Самарканд, 2015. – №9. – С. 89–112.
13. Yuqoridagi asar... – С. 102.
14. Yuqoridagi asar... – С. 104.
15. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. – Б. 155–174.
16. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб.... – С. 255–263.
17. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи.... – С. 80.
18. Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб.... – С. 255–263.
19. Исамиддинов М. Х. Материалы к своду археологических памятников Наманганской области // Архив Института археологии АН РУз. Фонд 8. Описание 1. Дело 91. – Самарканд, 1982. – С. 21.
20. O'sha joyda.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000